RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.

Mavlyanov Muminjon Akramovich – GulDPI o‘qituvchisi
E – mail: muminjonmavlyan@gmail.com
Jo‘raxo‘jayeva Dildora Odilovna - Guliston Davlat pedagogika instituti talabasi.
E - mail: joraxojayevadildora@gmail.com

Maqolada Hozirgi kunda insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan raqamli texnologiyalarni o‘rni haqida yoritilgan. Ayniqsa bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish katta ahamiyat berilmoqda, Raqamli texnologiyalar har bir sohada bor va yanada rivojlanib bormoqda ya’ni insonning hayot yo‘lida albatta raqamli texnologiyalarga duch keladi. Maqolaning maqsadi raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va uzluksiz ta’limni sifatini, ayniqsa xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini oshirish va ularning muammolari va yechimlari yoritiladi.

Mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri bu mustahkam demokratik davlat bo‘lish va rivojlangan davlatlar qatorida eng oldi o‘rinlarni egallash. Darhaqiqat, rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda, ayniqsa raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va har bir sohada uni qo‘llash amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotlarni ta’riflashda ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Raqamli texnologiyalar axborot-kommunikatsiyalardan foydalanishga asoslangan tizim hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish yani ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi va har bir tizimlarni avtomatlashtirish ko‘zda tutilmoqda. XXI asr boshqa asrlardan farqli o‘laroq texnologiyalar asri hisoblandi, yani kundan - kunga global tarmoq va axborot tizimlari, raqamli texnologiyalar rivojlanmoqda. Mamlakatimizda keying yillarda xorijiy tillarni o‘qitish va yoshlar orasida xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan intilish va qiziqishlarini amalga oshirish uchun bir qancha qaror va farmonlar chiqmoqda, bu farmon va qarorlardaham xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash haqida turli fikrlar keltirib o‘tilgan. Yaqin kelajakda mamlakatimiz raqamlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarni eng oldi qatorlarida joy oladi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bu har bir insonga ko‘plab imkoniyatlarni bermoqda ayniqsa o‘zimiz qiziqtirgan fan yoki joylar haqida bemalol ma’lumotlarga ega bo‘lolyapmiz. To‘g‘ri oldin ham insonlar o‘zi qiziqtirgan ma’lumotlarga ega bo‘lishgan lekin qanchadir vaqt kitob izlab yoki biron bir olimni gaplarini o‘qib lekin hozirda rivojlangan texnologiyalar yordamida biz bemalol qisqa vaqt ichida ma’lumotlarga ega bo‘la olamiz. Hozirda ta’lim tizimi raqamli

texnologiyalar bilan boyitib borilmoqda. Masalan, oldin o‘quvchilarga baho qo‘yilishi uchun jurnallardan foydalanishgan hozirgi kunda u ham elektronniy bo‘ldi, yanada rivojlantirish uchun darsliklar, ma’ruza mavzusi va ma’lumotlari, taqdimotlar, mustaqil ish mavzulari, topshiriqlar hammasi elektron bo‘lib bormoqda faqatgina har bir yosh avlod shu kundan kunga rivojlanayotgan raqamli texnologiyalardan unumli foydalanishi lozim. Raqamli texnologiyalar bizga judayam ko‘p imkoniyatlar va qulayliklar bermoqda ayniqsa ta’lim tizimida o‘qituvchi va o‘quvchilari o‘rtasida elektron hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishi hamda o‘qituvchilar uchun alohida kabinetlar yaratish muhokama o‘tkazib o‘quvchilar bilan ishlash uchun. Yana bir imkoniyati shundaki o‘quvchilarga ma’lumotlarni elektron taqdimotlar yoki qiziqarli o‘yinlar tariqasida tushuntirish rivojlanib bormoqda. Darhaqiqat, hozirgi yosh avlod kitobdan biron bir mavzuni qidirib topishdan ko‘ra rivojlangan texnologiyalardan qisqa vaqt ichida topib o‘rganishni afzal ko‘radi.


Ma’lumki, raqamli texnologiyalar jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda faqatgina iqtisodiyot yoki texnologiya sohalarida emas har bir sohada raqamli texnologiyalarni ko‘rishimiz mumkin. Har bir inson texnologiyalarni yaxshi o‘rgansa qay sohada ishlasa ham qo‘rqmasdan, o‘zida ishonch bilan mustaqil har bir texnologiyalardan foydalana oladi. Bugungi kunda yoshlar orasida ijtimoiy-iqtisodiy sohalar ham tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizga chet eldan kirib kelayotgan yangi texnologiyalar mavjud, bizning respublikamizda ham texnalogiyalar ishlab chiqarilmoqda va ishlab chiqarish korxona va tashkilotlar barpo etilmoqda. Darhaqiqat, bu texnalogiyalarni mustaqil ishlay oladigan mutaxassislar kerak. Shuning uchunham biz kelajak yoshlari hozirda shiddat bilan rivojlanib kelayotgan raqamli texnologiyalarni yaxshi o‘rgana bilishi kerak. Zamonaviy yosh ko‘rinishi qanday bo‘ladi degan savol bugungi kunda asosiy qarashlardan biridir, ayrim qarashlarga ko‘ra zamonaviy yoshlar nafaqat o‘z soxasining bilimdoni balki ikki – uch xorijiy tilni biladigan va raqmli texnologiyalaridan bemalol foydalana oladigan yoshlarni ko‘z oldimizga keltirsak bo‘ladi. Ayniqsa pedogoglarni sohasida ham raqamli texnologiyalarni ko‘rishimiz mumkin, oldingi pedagoglardan hozirgi pedagoglarni farqi shundaki, oldingi pedagoglar o‘z sohasini ya’ni pedagogik mahorati kuchli bo‘lsa hozirda pedagoglarda pedagogik mahorat hamda raqamli texnologiyalar davrida pedagog texnalogiyalarni ham o‘rganib zamonaviy texnologiyalar yordamida darslarini yanada qiziqarli tarzda o‘quvchilarga tushuntirib berishmoqda. Bu albatta, mamlakatda texnalogilarni rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Har bir pedogoglar uchun o‘quv dasturlarida soatlar taqsimotini jadval ko‘rinishida namoyon qilinishi amalga oshirilmoqda bu albatta judayam qulay deb hisoblayman, chunki pedagoglar dars soatlarini ko‘rishda o‘quv rejasiga yuzlanib qidirib yurmaydi, jadvalni

o‘zidan qisqa vaqt ichida ko‘radi bu esa pedagoglarni ishini osonlashtiradi va vaqtlarini tejashga yordam beradi.

Xozirgi kunda xorijiy tillarni o‘rganishda raqmli texnologiyalarni o‘rni juda katta Uzliksiz ta’limning sifat va samaradorligini oshirish muammolari va uning yechimlari raqamli texnologiyalar orqali xal etishimiz mumkin. Uzliksiz ta’limni rivojlantirish uchun masofaviy ta’lim platformalari yaratilgan o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun hamda onlayn darsliklar yaratilgan bunga misol qilib xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiya bo‘lmish “Ibrat Academy” ni misol qilsak bo‘ladi.

1-rasm. Ibrat Academy platformasini logotipi.

Xorijiy tillarni o‘qitish darslarni sifatli va samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar o‘z navbatida talabalar va o‘qituvchi o‘rtasida komunikativ aloqalarni kuchaytirish zamonaviy dars o‘tish metodlarin o‘rgatish, xalqaro tajribalarni o‘rgatish imkoninini beradi. O‘quvchilarda bugun biz ananaviy dars o‘tish metodlardan foydalanib qiziqishlarini o‘yg‘ata olmaymiz chunki zamonaviy yoshlar raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni yaxshi o‘zlashtirishgan. Ularni endi biz eski usullardagi so‘z yodlash, diolog qurish, qoidalarni eslab qolish kabi eski metodlar bilan qiziqishlarini o‘stira olmaymiz, balkim zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan ta‘lim resurslaridan foydalanishimiz kerakligini zamonni o‘zi talab etmoqda motivatsiya berib ularni rag‘batlantira olishi kerak va mustaqil o‘zlashtirishiga imkoniyat yaratishi lozim, bunda bizga albatta raqamli texnologiyalar yordamga keladi.



2-rasm. Ibrat Academy interfeysi.

Ma'lumki bugungi kunda jamiyatimizga yetuk va iqtidorli kadrlarni yetkazib berish oliy ta'lim tizimining oldida turgan asosiiy maqsad va vazifalaridan biridir. Zamonaviy kadrlarni jamiyatga yetkazib berishda pedagokning o'ziham zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim, bunday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishda raqamli texnologiyalarni o'rni beqiyos.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Samarova, S.R. (2019). Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(10), 37-43.

2. Shokarimova, K.A. (2020) pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning ta'lim tarbiya berishdagi ahamiyati. Science and Education, 1 (Special Issue 2).

3. N.N. Azizxo,,jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2003 y. -174 b.

4. Gulmira Sharifovna Absalamova. Xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati. Theoretical and practical foundations of introducing smart agriculture in Uzbekistan. Volume 4 | SamTSAU Conference | 2023